

## UZ CLAAS AGRO MCHJ AYLANMA MABLAG'LARNI SAMARALI BOSHQARISH YO'LLARI

Abdirimov Xurshid Ikrambekovich

O'zbekiston Respublikasi Bank-Moliya Akademiyasi magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15547515>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada "Uz CLAAS Agro" MChJ faoliyati misolida aylanma mablag'larni boshqarish jarayoni tahlil qilinadi va ularning samaradorligini oshirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqiladi. Aylanma mablag'lar korxonaning qisqa muddatli moliyaviy holatini belgilovchi muhim resurs bo'lib, ularni oqilona boshqarish ishlab chiqarish barqarorligi, likvidlik va foyda ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Maqolada korxonaning 2022–2024 yillardagi moliyaviy ko'rsatkichlari asosida tahlil o'tkazilib, debitor qarzdorlikni, ombor zaxiralarini optimallashtirish hamda raqamli boshqaruva tizimlarini joriy etish orqali aylanma mablag'lar aylanishini tezlashtirish yo'llari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari asosida korxonaga moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va resurslardan samarali foydalanishga qaratilgan konkret takliflar berilgan.

**Kalit so'zlar:** aylanma mablag'lar, likvidlik, debitor qarzlar, tahlil, boshqaruva samaradorligi, Uz CLAAS Agro MChJ.

## WAYS TO EFFECTIVELY MANAGE WORKING CAPITAL AT UZ CLAAS AGRO LLC

**Abstract.** This article analyzes the process of managing working capital using the example of the activities of "Uz CLAAS Agro" LLC and develops practical proposals to improve their efficiency. Working capital is an important resource that determines the short-term financial condition of the enterprise, and its rational management directly affects the stability of production, liquidity and profit indicators. The article analyzes the financial indicators of the enterprise for 2022–2024 and considers ways to reduce receivables, optimize warehouse reserves and accelerate the turnover of working capital by introducing digital management systems. Based on the results of the study, specific proposals are made to ensure financial stability and effective use of resources for the enterprise.

**Keywords:** working capital, liquidity, receivables, analysis, management efficiency, Uz CLAAS Agro.

### Kirish

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir xo'jalik yurituvchi subyekt o'z moliyaviy barqarorligini ta'minlash, ishlab chiqarish jarayonining uzlusizligini saqlab qolish hamda raqobatbardoshligini oshirish uchun mavjud resurslardan, xususan, aylanma mablag'lardan oqilona va samarali foydalanishga intiladi. Ayniqsa, qishloq xo'jaligi texnikalarini yetkazib beruvchi, ularga xizmat ko'rsatuvchi va ehtiyyot qismlar bilan ta'minlaydigan yirik korxonalar uchun aylanma mablag'larning uzlusiz aylanishi ishlab chiqarish samaradorligining muhim omillaridan biri hisoblanadi.

"Uz CLAAS Agro" MChJ O'zbekistonda CLAAS brendi ostida faoliyat yurituvchi muhim tarmoq korxonalaridan biri bo'lib, uning ishlab chiqarish va tijorat faoliyatida aylanma mablag'lar muhim o'rinn tutadi.

Korxonaning asosiy yo‘nalishlari – qishloq xo‘jaligi texnikasini yetkazib berish, texnik xizmat ko‘rsatish, zaxira qismlar savdosi – doimiy moliyaviy aylanmani talab qiladi. Shu sababli aylanma mablag‘larni to‘g‘ri rejalashtirish, ularning aylanish tezligini oshirish, debitor va kreditor qarzlarni muvozanatda ushlab turish korxonaning moliyaviy barqarorligi va samaradorligiga bevosita ta’sir qiladi.

Mazkur maqolada “Uz CLAAS Agro” MChJ misolida aylanma mablag‘lar strukturasini tahlil qilish, ularning boshqaruvidagi mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish maqsad qilingan. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, ayni davrda iqtisodiy islohotlar bilan birga yirik korxonalar moliyaviy mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan choralar asosida, aylanma mablag‘lar samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy-amaliy yondashuvlar zaruratga aylangan.

**Metodologiya:** Mazkur tadqiqotda “Uz CLAAS Agro” MChJ faoliyatida aylanma mablag‘larni boshqarish tizimini o‘rganish jarayonida iqtisodiy-tahliliy yondashuvlar, statistik ko‘rsatkichlar tahlili, taqqoslama metodlar va ekspert baholash yondashuvlari qo‘llanildi.

Tadqiqotda, eng avvalo, korxonaning 2022–2024 yillarga oid moliyaviy hisobotlari asosida aylanma mablag‘lar hajmi, ularning aylanish koeffitsienti, debitor va kreditor qarzlar miqdori, shuningdek, pul oqimlarining tarkibi va o‘zgarishlari tahlil qilindi. Tahliliy yondashuv korxonaning mavjud moliyaviy resurslaridan foydalanish samaradorligini aniqlashda muhim vosita bo‘ldi.

Shu bilan birga, O‘zbekistonning boshqa qishloq xo‘jaligi texnikasi bilan shug‘ullanuvchi xususiy va davlat korxonalari faoliyati bilan qisqa taqqoslash o‘tkazilib, korxona uchun xos bo‘lgan ustuvorlik va zaiflik jihatlari ajratib ko‘rsatildi.

Moliyaviy ko‘rsatkichlarning yanada aniq va ravshan ifodalanishini ta’minalash maqsadida grafik va jadvaliy usullardan ham keng foydalanildi. Ushbu vizual tahlil vositalari aylanma mablag‘lar tarkibidagi o‘zgarishlarni yoritishda samarali bo‘lib, tahlil natijalarini aniq ifodalash imkonini berdi.

Shuningdek, tadqiqot doirasida “Uz CLAAS Agro” MChJ moliyaviy bo‘limi mutaxassislari, boshqaruv xodimlari va tahlilchilari bilan suhbatlar o‘tkazilib, mavjud muammolar va ularning sabablarini ekspert baholash asosida aniqlashga urinish qilindi. Bu yondashuv tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyatini oshirishda muhim rol o‘ynadi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasining buxgalteriya hisobi, moliyaviy boshqaruv va xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlari chuqur o‘rganilib, ularning aylanma mablag‘lar boshqaruviiga ta’siri baholandи. Normativ-huquqiy tahlil orqali qonunchilikdagi mavjud cheklar va imkoniyatlar aniqlanib, ularni amaliyatda to‘g‘ri qo‘llash bo‘yicha takliflar ishlab chiqildi.

**Mavzuga oid adabiyotlar sharhi:** Aylanma mablag‘larning boshqaruvi bo‘yicha ilmiy-nazariy asoslar iqtisodiy adabiyotlarda keng yoritilan bo‘lib, bu boradagi yondashuvlari tahliliy, funksional va strategik nuqtai nazarlardan rivojlanib bormoqda. Xususan, Murodov M. tomonidan yozilgan “Korxonada aylanma mablag‘larni boshqarish” (2020) nomli kitobida korxona faoliyatida aylanma mablag‘lar samaradorligini ta’minalashning amaliy yondashuvlari bayon qilingan. Unda, ayniqsa, ishlab chiqarish va savdo korxonalarida zaxiralarni boshqarish va likvidlikni ta’minalash mexanizmlari alohida urg‘u bilan ko‘rib chiqilgan.

Shuningdek, Qodirov S. va boshqalarning “Korxona moliyasi” (2022) nomli darsligida moliyaviy ko‘rsatkichlar tahlili, aylanma mablag‘lar aylanishi, pul oqimlarini rejalashtirish masalalari tizimli yoritilgan.

Xalqaro adabiyotlarda esa Ross, Westerfield va Jordan (2018) tomonidan chop etilgan “Fundamentals of Corporate Finance” nomli asarda aylanma kapital boshqaruvining AQSh va Yevropa tajribasiga asoslangan modellari keltirilgan bo‘lib, inventar, debitor va pul mablag‘lari boshqaruvining rentabellikka ta’siri chuqur tahlil qilinadi. Bundan tashqari, Horngren (2021)ning “Financial Management” asarida korporativ moliyaviy qarorlar qabul qilishda qisqa muddatli aktiv va passivlar boshqaruvi muhim bo‘g‘in sifatida ko‘rsatilgan.

Milliy qonunchilik manbalari orasida O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni va amaldagi moliyaviy hisobot standartlari, shuningdek Soliq qo‘mitasi, Moliya vazirligi va boshqa tartibga soluvchi organlarning me’yoriy hujjatlari korxonalar moliyaviy boshqaruvi, jumladan, aylanma mablag‘lar samaradorligini tartibga soluvchi asosiy normativ manbalar hisoblanadi.

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, aylanma mablag‘larning boshqaruvi bo‘yicha yetarli nazariy asoslar mavjud, biroq har bir korxona faoliyatining o‘ziga xos jihatlarini hisobga olgan holda, amaliy yechimlarni ishlab chiqish zarurati saqlanib qolmoqda.

Shu nuqtayi nazardan “Uz CLAAS Agro” MChJ misolida olib borilgan tadqiqot mavjud adabiy manbalarni to‘ldiruvchi va amaliy jihatdan foydali takliflar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

### Tahlil va natijalar

Tadqiqot davomida “Uz CLAAS Agro” MChJning 2022–2024 yillardagi moliyaviy ko‘rsatkichlari asosida aylanma mablag‘lar strukturasiga chuqur tahlil o‘tkazildi. Aniqlanishicha, korxonaning aylanma mablag‘lari yildan-yilga o‘sib bormoqda.

### 1-jadval

#### “Uz CLAAS Agro” MChJda 2024-yil 1-yanvar va 2024-yil 31-dekabrdagi moliyaviy holati (ming so‘mda)

Ko‘rsatkichlar	01.01.2024	31.12.2024
<strong>AKTIVLAR</strong>		
Asosiy vositalar	13 236 583,36	22 642 891,52
Boshqa uzoq muddatli aktivlar	335 937,21	1 462 930,31
Jami uzoq muddatli aktivlar	26 740 634,57	39 737 965,09
Jami qisqa muddatli aktivlar	267 798 112,41	257 288 128,36
<strong>Jami aktivlar</strong>	<strong>294 538 746,99</strong>	<strong>297 026 093,45</strong>

#### Manba: Mualif ishlanmasi

Korxonaning 2024-yil boshidan yil yakuniga qadar bo‘lgan moliyaviy holatini tahlil qilish uning iqtisodiy barqarorligi, moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligi va tashqi

hamda ichki omillarga moslashuvchanligini aniqlashga xizmat qiladi. Hisobotdan ko‘rinib turibdiki, yil davomida umumiy aktivlar hajmi 2,48 mldr so‘mga yoki 0,84% ga oshgan. Bu nisbatan sust o‘sish bo‘lishiga qaramay, aktivlar tarkibidagi sifat o‘zgarishlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Avvalo, asosiy vositalarning qiymati 13,2 mldr so‘mdan 22,6 mldr so‘mga, ya’ni 71% ga oshgan. Bu esa korxonaning ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish infratuzilmasiga sarmoya kiritganligini ko‘rsatadi. Ushbu o‘sish ishlab chiqarish quvvatining kengayishi, yangi texnologiyalarni joriy etish yoki asosiy vositalarni qayta baholash natijasi bo‘lishi mumkin.

Investitsiyalar bo‘yicha biroz pasayish kuzatilgan bo‘lsa-da (-1,86%), bu pasayish korxonaning boshqa yuqori likvidli aktivlarga ustuvorlik bergenini anglatadi. Ayniqsa, pul mablag‘lari ko‘rsatkichi bunga yaqqol misol bo‘la oladi — yil davomida bu ko‘rsatkich 843% ga oshgan. Dastlab 2,1 mldr so‘m bo‘lgan naqd va naqdga teng mablag‘lar yil oxirida 19,9 mldr so‘mga yetgan. Bu esa korxonaning naqd likvidligi ancha oshganini ko‘rsatadi.

Qisqa muddatli aktivlar tarkibida esa sezilarli o‘zgarishlar mavjud: zahiralar hajmi 36,1 mldr so‘mga yoki 17,9% ga kamaygan. Bu o‘zgarish korxonaning zaxiralarni optimallashtirish, ularni kamaytirish orqali ish samaradorligini oshirishga harakat qilayotganidan dalolat beradi. Ayni vaqtda xaridorlardan debitorlik qarzları 37% ga oshgan. Bu mijozlarga to‘lov muddatining uzaytirilganligini yoki savdo hajmining ortganligini ko‘rsatishi mumkin.

Kapital tuzilmasini tahlil qilar ekanmiz, korxonaning sof kapitali 27,2 mldr so‘mga yoki 69,6% ga oshgan. Bu holat bevosita taqsimlanmagan zarar miqdorining kamayishi bilan bog‘liq.

Yil boshida korxonada -309 mldr so‘mlik zarar bo‘lgan bo‘lsa, yil yakunida bu ko‘rsatkich -281 mldr so‘mga kamaygan. Bu esa 27 mldr so‘mga yaqin foyda shakllanganligini ko‘rsatadi. Kapital tuzilmasidagi bu ijobiy siljishlar korxona moliyaviy sog‘lomlashuv bosqichida ekanligidan darak beradi.

Majburiyatlar bo‘yicha tahlil shuni ko‘rsatadiki, umumiy majburiyatlar hajmi 255 mldr so‘mdan 230 mldr so‘mga kamaygan. Xususan, uzoq muddatli majburiyatlar — asosan kreditlar va qarzlar — 31,7 mldr so‘mga yoki 25,2% ga qisqargan. Bu qarz yukining kamaygani va moliyaviy barqarorlik oshganini bildiradi. Biroq qisqa muddatli majburiyatlar 7 mldr so‘mga oshgan bo‘lib, bu operatsion faoliyatning kengayganini yoki to‘lov muddati yaqinlashgan majburiyatlar ko‘payganini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, 2024-yil yakunida korxona moliyaviy holatida ijobiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Kapitalning oshishi, zarar miqdorining kamayishi, asosiy vositalar va pul mablag‘lari hajmining ortishi korxonaning moliyaviy barqarorligini mustahkamlab bormoqda.

Shu bilan birga, qisqa muddatli debitorlik qarzlarining o‘sishi va qisqa muddatli majburiyatlar hajmining ko‘payishi muayyan xavf sifatida e’tiborga olinishi kerak. Ushbu holatlar korxonadan uzlusiz likvidlikni saqlash, moliyaviy oqimlarni oqilona boshqarish va qarz siyosatini ehtiyyotkorlik bilan yuritishni talab etadi.

Shuningdek, korxonaning kredit qarzlari hajmi biroz kamaygan – bu, bir tomonidan, moliyaviy mustaqillik darajasining oshayotganidan dalolat bersa-da, ikkinchi tomonidan, yetarli tashqi moliyalashtirishning mavjud emasligi aylanma mablag‘larning yetishmasligiga olib kelishi mumkin. Aylanma mablag‘ aylanish koeffitsienti

Tahlil natijalariga ko‘ra, “Uz CLAAS Agro” MChJda mavjud muammolarning asosiy sababi – inventarizatsiya zaxiralarining yuqoriligi, debitor qarzlar muddati va hajmining oshishi, shuningdek, pul oqimlari boshqaruvining yetarlicha avtomatlashtirilmaganligidir. Shu bois, aylanma mablag‘larni samarali boshqarish uchun korxona tomonidan “just-in-time” tizimi, ERP (masalan, SAP yoki 1C) dasturlari orqali real vaqt monitoringi, elektron billing va avtomatik to‘lov eslatmalari kabi raqamli yondashuvlarni joriy etish zarur.

Yuqoridagi tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, korxonada aylanma mablag‘lar o‘sayotgan bo‘lsa-da, ularning ichki tarkibida muvozanatning buzilishi va nazorat mexanizmlarining yetarli darajada ishlamasligi tufayli likvidlik, samaradorlik va foyda olish darajasiga xavf soluvchi omillar mavjud. Bu holatni bartaraf etish uchun tizimli tahlil asosida aniq boshqaruv qarorlarini qabul qilish va raqamli transformatsiyani jadallashtirish talab etiladi.

### Muhokama

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, “Uz CLAAS Agro” MChJ faoliyatida aylanma mablag‘lar hajmining yillik o‘sib borayotgan bo‘lishiga qaramay, ularning tarkibida yuzaga kelayotgan disbalanslar korxonaning moliyaviy barqarorligiga xavf tug‘dirmoqda. Xususan, debitor qarzlar hajmining ortib borayotgani mablag‘lar aylanishini sekinlashtirmoqda, bu esa korxonaning likvidlik ko‘rsatkichlariga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Korxonaning hozirgi holatida aylanma mablag‘lar aylanish koeffitsienti

Korxona tomonidan ombor zaxiralari bo‘yicha “just-in-time” (zaruratga qarab yetkazib berish) tamoyilini joriy etish orqali mahsulot aylanishini tezlashtirish, zaxiralarni kamaytirish va keraksiz logistika xarajatlarini qisqartirish imkoniyati mavjud. Biroq hozirgi holatda bu tizim to‘liq ishlamayapti va natijada, ortiqcha zaxiralar korxonaning aylanma mablag‘larida muzlatilgan resurslar sifatida saqlanib qolmoqda. Bundan tashqari, kredit qarzlarining biroz kamaygani ijobiy holat bo‘lsa-da, bu yetarli tashqi moliyalashtirish yo‘qligi tufayli yuzaga kelgan bo‘lishi mumkin. Bunday holat uzoq muddatli investitsion strategiyani to‘liq amalga oshirishga to‘sinqinlik qilishi mumkin.

Muhokama davomida aniqlangangi, “Uz CLAAS Agro” MChJ uchun raqamli transformatsiyani jadallashtirish zaruriyati dolzarb masala hisoblanadi. ERP tizimlarini (masalan, SAP, 1C) to‘liq joriy qilish, pul oqimlari harakatini real vaqt rejimida monitoring qilish va debitorlikni avtomatlashtirilgan boshqaruv asosida nazorat qilish orqali aylanma mablag‘lar samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin. Bu yo‘nalishlar nafaqat ichki boshqaruvni soddalashtiradi, balki korxonaning raqobatbardoshligini kuchaytirishga ham xizmat qiladi.

Shu tariqa, tadqiqot davomida ilgari surilgan xulosalar shuni ko‘rsatadiki, “Uz CLAAS Agro” MChJ faoliyatida aylanma mablag‘lar boshqaruvi bo‘yicha qator imkoniyatlar mavjud, ammo ular to‘liq amalga oshirilishi uchun strategik rejalashtirish, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va samarali moliyaviy nazorat mexanizmlari talab etiladi. Bu esa korxonaning moliyaviy salohiyatini mustahkamlash va barqaror rivojlanishini ta’minlaydi.

### Xulosa

Tadqiqot davomida “Uz CLAAS Agro” MChJ misolida aylanma mablag‘larning holati, ularning aylanish ko‘rsatkichlari va boshqaruv mexanizmlari chuqur tahlil qilindi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, korxonaning aylanma mablag‘lari hajmi yildan-yilga ortib borayotgan bo‘lsa-da, ularning tarkibidagi debitor qarzlar ulushining oshishi va inventarizatsiya

zaxiralarining yuqoriligi mablag‘larning samarasiz aylanib qolishiga olib kelmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, korxonaning likvidlik darajasiga va operatsion faoliyatining uzlusizligiga salbiy ta’sir qilmoqda. Shuningdek, kredit qarzlarining kamayishi korxonaning tashqi moliyalashtirish manbalaridan cheklangan foydalanayotganini ko‘rsatadi.

Korxona uchun aylanma mablag‘larni samarali boshqarishning asosiy yo‘nalishlari sifatida – debitor qarzlar bo‘yicha qat’iy siyosat yuritish, ombor zaxiralarini optimallashtirish, pul oqimlarini real vaqt monitoring qilish imkonini beruvchi raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda ERP tizimlari orqali moliyaviy operatsiyalarni avtomatlashtirish zarur deb topildi.

Ayniqsa, “just-in-time” uslubini faol joriy qilish orqali ishlab chiqarish va yetkazib berish zaxiralarini maqbullashtirish korxonaga katta iqtisodiy samara keltirishi mumkin.

“Uz CLAAS Agro” MChJda aylanma mablag‘larni boshqarish borasida ijobjiy qadamlar tashlangan bo‘lsa-da, bu jarayonni chuqur tahlil asosida takomillashtirish orqali korxonaning moliyaviy barqarorligini yanada mustahkamlash, foya olish imkoniyatlarini kengaytirish va raqobatbardoshligini oshirish mumkin. Taklif etilgan choralar amaliyotga joriy etilgan taqdirda, “Uz CLAAS Agro” MChJ uchun qisqa muddatli samaradorlikni emas, balki uzoq muddatli moliyaviy sog‘lomlikni ta’minlovchi muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

## REFERENCES

1. Murodov, M. (2020) *Korxonada aylanma mablag‘larni boshqarish*. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
2. Qodirov, S., Ergashev, A. va Rasulov, B. (2022) *Korxona moliyasi*. Toshkent: Fan va texnologiya.
3. Ross, S.A., Westerfield, R.W. and Jordan, B.D. (2018) *Fundamentals of Corporate Finance*. 12th edn. New York: McGraw-Hill Education.
4. Horngren, C.T. (2021) *Financial Management*. 15th edn. London: Pearson Education.
5. O‘zbekiston Respublikasi (2021) “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonun. [Online] Available at: <https://lex.uz/ru/docs/5003554> [Accessed 10 May 2025].
6. Ministry of Finance of the Republic of Uzbekistan (2023) *Financial reporting standards for enterprises*. [Online] Available at: <https://mf.uz> [Accessed 8 May 2025].
7. Claas Group (2024) *Annual Report 2023*. [Online] Available at: <https://www.claas-group.com> [Accessed 6 May 2025].
8. Johnson, R.A. and Soenen, L. (2003) ‘Indicators of Successful Companies’, *European Management Journal*, 21(3), pp. 364–370.
9. Gitman, L.J. and Zutter, C.J. (2015) *Principles of Managerial Finance*. 14th edn. Boston: Pearson.
10. Brigham, E.F. and Ehrhardt, M.C. (2016) *Financial Management: Theory and Practice*. 15th edn. Boston: Cengage Learning.
11. Higgins, R.C. (2012) *Analysis for Financial Management*. 10th edn. New York: McGraw-Hill/Irwin.
12. Brealey, R.A., Myers, S.C. and Allen, F. (2017) *Principles of Corporate Finance*. 12th edn. New York: McGraw-Hill Education.

13. Kaplan, R.S. and Norton, D.P. (2004) *Strategy Maps: Converting Intangible Assets into Tangible Outcomes*. Boston: Harvard Business Press.
14. Central Bank of Uzbekistan (2023) *Quarterly Monetary Policy Report*. [Online] Available at: <https://cbu.uz> [Accessed 9 May 2025].
15. Statistika agentligi (2024) *O'zbekiston Respublikasi sanoat ko'rsatkichlari statistik byulleteni*. [Online] Available at: <https://stat.uz> [Accessed 7 May 2025].